

LINVUD BARKALAYNING «XAYR DEYISH UCHUN VAQT YO'Q» ASARIDAGI ANTROPONIMLARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI
THE PROBLEMS OF TRANSLATING ANTHROPNOMS IN LINVUD BARKALAY'S "NO TIME TO SAY GOODBYE" FROM ENGLISH INTO UZBEK
ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА АНТРОПОНИМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЛИНВУД БАРКАЛАЯ «НЕТ ВРЕМЕНИ ПРОЩАТЬСЯ» С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6462142>

Rashidov Aziz Abdumansur o'g'li

Termiz Davlat Universiteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati

yo'nalish talabasi

O'zbekiston, Termiz

Solijonov Juraali Kamoljonovich

Termiz davlat universiteti

o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Linwood Barclay qalamiga mansub «Hayr deyish uchun vaqt yo'q» asaridagi antroponimlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasi va ularning mohiyatiga lingvistik nuqtai nazardan o'quvchi uni anglash uchun ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilingan. Obyekt sifatida tanlangan ismlar to'qima bo'lgani tufayli personajlarning ismlaridan oldin ularning asardagi vazifasi hamda xarakteri o'ylab topilgani, so'ngra uni lingvistik qoliplarga solingan. Shu tufayli maqola tarjimon ularni o'zbek tiliga o'girishdan oldin etimologik, leksikologik, semantik va fonetik tahlil qilish uchun qoliplar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: antroponimlar, transliteratsiya, tarjima, ingliz-o'zbek tarjima, leksikologiya, Linwood Barkalay

Abstract: This article analyzes the translation of antroponyms from English into Uzbek and the essences of Linwood Barclay's "No time to say goodbye" taking into account the factors influencing the linguistic understanding of the reader. The article suggests templates for etymological, lexical, semantic and phonetic analysis before the translator translate them into Uzbek.

Keywords: antroponyms, transliteration, translation, English-Uzbek translation, lexicology, Linwood Barclay

Аннотация: В данной на узбекский и суть произведения Линвуд Барклая «Нет Времени Прощаться» с учетом факторов, влияющих на лингвистическое понимание читателя. В статье предлагаются шаблоны для этимологического, лексического, семантического и фонетического анализа перед тем, как переводчик переведет их на узбекский язык.

Ключевые слова: атропоним, транслитерация, лексикология, семантическая трансформация, англо-узбекский перевод.

KIRISH. Linvud Barklay Konnektikut shtatining Darien shahrida tug'ilgan. Muriva Everett Barklayning o'g'li. 1966- yilda oila Ontorio shtatining Bobcaygeon shahridagi dam olish lagerini sotib oldi, ular otasi Barklay o'n olti yoshga to'lganida o'pka saratonidan vafot etgunigacha qadar ishladi. O'rta maktabni tugatgandan keyin, Barklay Ontorio shtatidagi Trent universitetida adabiyot bo'yicha tahsil oldi. U yerda uning o'qituvchilaridan biri taniqli yozuvchi Margaret Lorens edi. 1981-yilda u Toronto Start gazetasiga ko'chib o'tdi. Uning eng mashhur detektiv asarlaridan biri 2007-yilda «No timr for Goodbye» hayr deyishga vaqt yo'q nomi bilan chop etildi. Shuningdek, u o'z maqolalarini chiqardi va uchta to'plamni nashr etdi. Kitoblari Buyuk Britaniyada nashr etildi va muvaffaqiyatga erishdi. Uning 2012- yilda chop etilgan «Ko'zinga ishon» romani Buyuk Britaniyaning eng yaxshi triller asar mukofoti uchun tanlab olindi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA ISHLANISH METADOLOGIYASI

Mazkur maqola uchun tadqiqot davomida tarjima qiyosiy adabiyot, qarama qarshi tavsifli tarjima va lingvistik atamalarning izohli tahlili, adabiyotning stilistik tahlili ko'rib, o'rganib chiqildi [6].

Antroponimlar - onomastikaning bo'limi. Odamlar ismini, ularning tarqalganligini, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo'llanishini va bundan tashqari antroponomik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o'rganadi [2].

Translitteratsiya (lotincha: trans qarshi, orqali va littera – harf) deb bir yozuv tizimidagi matnni boshqa yozuv tizimidagi belgilar bilan berishga aytiladi. Yaniy tarnima jarayonida asl matn tilida keltirilgan atoqli otlar, geografik joy nomlarini tarjima qilib bo'lmaydi. Ulardagi ba'zi tovushlarni tarjima tiliga boshqa tovushga o'zgartirilishiga aytiladi [2].

Leksikologiya (leksika va logiya) tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'lim. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya sohalari bilan chanbarchas bog'liq [2].

Maqola uchun tadqiqot davomida qiyosiy adabiyotlar, lingvistik atamalarning qarama-qarshi va tavsifi tarjima hamda badiiy tarjimaning stilistik tahlillarini o'rganildi. Natijalarga uch xil qarash bilan nazar tashlash mumkin. Birinchidan, nomlar tarnima qilinishi kerakmi yoki ayrim tarjimonlar ularni tarjima qilganmi, agar shunday bo'lsa, tarjima tiliga qanday tarjima qilinganini tekshirish. Ikkinchidan, obyektlarni tarjima qilish uchun ishlatiladigan strategiya va usullarni ko'rib chiqish va yechimni ko'rsatish. Uchinchidan, inglizcha- inglizcha taqqoslash va zidlash orqali ismlarning semantik yoki tavsifiy ma'nosini o'rganishdan iborat. Antroponimlar etimologiyasi va orfografik transformatsiyaga uchraganligi hamda tarjimonning qarashlari orqali tahlil qilindi.

NATIJALAR

Ushbu maqolada o'nga yaqin antroponimlar leksikologik, etimologik, morfologik va boshqa xususiyatlariga ko'ra tahlil qilindi. Tadqiqotlar onomastik ba'zi muammoli jihatlari, ismlarning o'simlik va ovqat nomlari bilan aloqador jihatlari ham qisman o'rganildi va turli yechimlar taklif qilindi.

MUHOKAMA

Ushbu asarda asosan so'zma-so'z tarjima qilish usulidan foydalanilgan. Shuningdek, quydagicha transformatsiya usullaridan foydalanilgan. Leksikologik transformatsiya. «if Only» gapi qisqartirib agarda deb tarjima qilingan. «Something was niggling at her.» Bu gapda unga nimadur xirillar edi deb tarjima qilingan «edi» so'zi qo'shilgan. Qisqartma so'zlardan foydalanilgan «gonna», «wonna», «she'd», «he'd» [5].

«Her own voice suddenly sounded strange to her». Bu gapda «own» so'zi tarjima qilinmadi. «suddenly» so'zi birdan deb tarjima qilindi. Shu qatorda asar tarjima jarayonida bunaqa o'zgarishlar ko'plab yuz bergan. Qo'shma gaplar sodda gaplarga aylantirilishi va so'zlarning sinonimidan foydalanishlarni ko'rish mumkin [4].

Antroponimlar. Todd-Tod, Pam-Pem, Jamison-Jemison, Terry- Terri, Rolly-Rolli, Grace- Greys, Bruno- Bruno, Christ- Krist, Clayton-Klayton, Tess-Tes, Archer-Archir, Patricia-Patrisiya, Pamela-Pamela, Lauren-Lauren, Hickory-Hikori, Vince-Vins [4].

At least a hundred flights were delayed, some by many hours-Kamida yuzta reys kechiktirildi, baz'zilari esa bir necha soatga uzaytirildi. Birinchi gapda delayed so'zi kechiktirildi ma'nosida qo'llanilib, ikkinchi gapda esa garchi birinchi gapda uzaytirildi so'zi qo'llanilmagan bo'lsa ham gap mazmunidan kelib chiqib, uzaytirildi so'zi qo'shilgan. Might they not hang him at once, and inquire into his case afterward? Ushbu gapda asl matnda nahotki so'zi yo'q bo'lsa ham badiiylikni oshirish uchun tarjima matnga qo'shildi. But now many of them were terribly tired- Ammo hozirgacha ularning ko'plari juda toliqishgan. Terribly tired birikmasi yomon, daxshatli charchagan ma'nolarini anglatib ushbu gapda juda toliqqan sinonimiga o'zgartirildi [4].

XULOSA

Ushbu maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga gaplarning va so'zlarning, so'z birikmalarining tarjimasidagi turli kichkina muammolarning bir nechtasi izohlari va matndagi ma'nolarining muqobillashtirilgan va uslubiy bo'yoqqa asoslanganlari berilishiga harakat qilindi. Har bir atoqli otlar ma'lum bir sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Har bir nom o'z tarixi biografiya va geografiasiga ega bo'ladi. Nomlar shaxslarni o'zaro farqlash ehtiyojidan tashqari ijtimoiy-lisoniy vazifasiga ko'ra ism beruvchi ning muayyan maqsadini ham ifoda etadi. Turli xalq nomlarini turli jihatlardan: lisoniy, etimologik, fonetik, morfologik, va boshqa xususiyatlariga ko'ra tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, antroponimlar millatning, xalqning milliy urf-odat va an'alarini, dunyoqarashi, madaniyatini o'zida aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/maqola/>
2. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/tarjima-na-zariyasi-fan-sifatida/>
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Linwood_Barclay
4. https://en.m.wikipedia.org/wiki/No_Time_For_Goodbye
5. Stevenson, A. (Ed.). (2010). *Oxford dictionary of English*. Oxford University

Press, USA.